O'QUVCHILARNI XALQ BADIIY HUNARMANDCHILIGIGA AN'ANAVIY O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Murotova Fotima To'xtasinovna
Toshkent shahar Uchtepa tumani
123 - maktab "Texnologiya" fan o'qituvchisi
Kurbanova Gavhar Ibodullayevna
Toshkent shahar Uchtepa tumani
123-maktab "Texnologiya" fan o'qituvchisi
Zakrillayev Xojimurod Xayrulla o'g'li
Toshkent shahar Uchtepa tumani
123-maktab "Jismoniy tarbiya" fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarning shaxsiy amaliy ishlari o'qitish jarayonidagi ularning mustaqilligini rivojlantirishning muhim vosita ekanligi ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *hunarmandchilik, ustoz-shogird, munosabatlari, pedogoglik munosabatlari, kasbiy mahorat.*

O'quvchilarni hunarmandchilikka o'rgatishda xalqona an'analarni tiklashning eng muhim bosqichlaridan biri shu an'analarda xalq kasbiy pedogogikasining zaruriy va qimmatli jihatlarini yuzaga chiqarish hamda hozirgi zamon pedogogik tizimda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. An'anaga ko'ra hunarmandlar yosh avlodining ta'lim va tarbiyasi asosan oilada amalga oshirilgan. Hunarmand o'z kasbiy mahoratini takomillashtirish ustida ish olib borib hunarmandchillik bilan shug'ullanib, bir paytning o'zida o'z farzandlarini tarbiyalagan va ta'lim bergan.U o'z farzandlarini mustaqil hayotga tayyorlay turib, to'plagan tajriba, bilim va mahoratini avloddan avlodga yetkazib , o'ziga o'rinbosar tayyorlagan.

Bolalarning hunarga bo'lgan qiziqishlari 7 – 8 yoshlarida maqsadli tarzda shakllanadi. O'qitishning mazkur bosqichini shartli ravishda bolalarning shogirdlikka axloqiy jihatdan tayyorlanish bosqichi deb belgiladik.Bu bosqich asosida hunar orqali o'ziga xos tarbiyalash amalga oshiriladi.13-14 yoshgacha o'quvchilar badiiy hunarmandchilikda ishlatiladigan xom – ashyoning turli xillari bilan tanishgan. Badiiy hunarmandchilik uning texnologiyasi va usullari haqida to'liq tassavurga ega bo'ladi.Shundan keyin bola asta - sekin asboblarni ishlatishga xom – ashyoning sifatini farqlashga , ranglar uyg'unligini to'gri va did bilan tanlashga o'rganadi.

Mehnatning har bir an'anaviy turi bolalarni ma'nan boyitib , kuchi yetgan ishlarni bajarish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ularda asta –sekin mehnatga ko'nikish eng muhimi , unga muhabbat shakllanadi. Ta'kidlash lozimki , ayrim ish usullarini va amallarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchi to'la qonli mahsulot emas, balki turli kichik buyumlar

tayyorlashadi. Bu buyumlar muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchungina mo'ljallangan bo'ladi. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni mustahkamlash turli mehnat amallarini tez – tez takrorlash orqali amalga oshiriladi. O'qitish mazmuni va uning izchilligi bevosita ma'lum buyumni tayyorlashdagi texnologik jarayon izchilligi bilan belgilanadi.

Badiiy hunarmandchilik ta'limi va tarbiyasi tizimi shunday tuzilganki , hunarmandchilik ishlab chiqarishida bevosita ishtirokidan oldin ruhiy va kasbiy tayyorgarlik ko'rilib, zaruriy sifatlar, shuningdek, bilim , ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchilarning shaxsiy amaliy ishlari o'qitish jarayonidagi ularning mustaqilligini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'qitishning eng samarali tizimini tanlash xalq badiiy hunarmandchiligida an'anaviy texnologiyaning yetakchi bo'lishini taqozo qiladi.

Biz o'qitishning quyidagi tamoyillarini ajratdik:

1.Bolalarni hunarga va hunarmandchillik ishlab chiqarishiga erta jalb qilish.

2.Ta'limning o'quvchilarni axloqiy, estetik , ma'naviy kasbiy jihatidan tarbiyalashni nazarda tutadigan tarbiyaviy tabiati.

3.Ta'limning hayot bilan bogliqligi buni amalga oshira turib ustoz o'quvchilarni mustaqil, ruhan kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, bilim, ko'nikma va malakalari ancha amaliy tabiat kasb qilib boradi.

4.Ta'limning tizimliligi va izchilligi bunga o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining asta-sekin kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi evaziga erishiladi.

5.Ta'limning ko'rgazmaliligi. Bunda o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'zlari yasagan buyumlar keng namoyish qilinadi.

6.O'qitishning osonligi va yengilligi. O'qitish mazmunini belgilashda o'quvchilarning yosh, jismoniy va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olsh kerak.

7.O'quvchilarning ijodiy faolligi tamoyili badiiy hunarmandchilikning o'ziga xosligi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, xayolotni , nafis didni shakllantirishni taqozo qilib qo'yadi.

O'zbek xalqi o'z hunarmandchiligi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan Xiva , Buxoro, Samarqand, Shahrisabz shaharlaridagi me'morchilik yodgorliklari, o'zbek kashtado'zlari, duradgorlari, chinnisozlari tomonidan yaratilgan buyumlar xalq milliy hunarmandchiligi beqiyos darajada bo'lganidan dalolat beradi.O'zbekiston hamda boshqa hududlar sharoitida yosh avlodning fuqarolar sifatida kamol topishida oila va xalqning mehnat an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiyani o'qitish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanishni joiz deb bilaman: og'zaki hikoya, bayon qilish, ko'rgazmali kuzatish, amaliy topshiriq mashq, mustaqil ish, nazorat, suhbat, taqqoslash, sinov, ijodiy ish. Ta'limning xususiy va ommaviy shakllarda tashkil qilinish jarayonlari tahlili o'quvchilarning badiiy hunarmandchilik buyumlari yaratishning barcha amaliy bosqichlari bilan yaqindan tanishganliklarini ko'rsatib beradi.

O'quvchilarda mashg'ulotlar jarayonida xalq ustalariga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat, axloqiy me'yorlar, xalq og'zaki ijodi namunalariga hurmat hislarini tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarni materiallarning turli xususiyatlari bilan atroflicha tanishtirishga alohida ahamiyat berilish kerak. O'quvchilarni o'qitish jarayonida ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi darslik, o'qitish metodlari va o'qituvchiga bogliq. Yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi, kasbini va bolalarni sevishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. – T. Toshkent oqshomi.
2. O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi. Xalq ta'limi